

## Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025-yil yanvar-iyul oylari uchun

- I. Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2025-yilning 1-avgust holatiga ko'ra viloyatda 2 585 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalarini soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 588 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 22,7 % i) boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 573 tasi (22,2 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 191 tasi (7,4 %) tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyatga, 173 tasi (6,7 %) mebel ishlab chiqarishga va 157 tasi (6,1 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni  
1-avgust holatiga ko'ra



## II. Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 104 083,8 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 109,4 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>104 083,8</b>	<b>109,4</b>
Navoiy sh.	89 312,2	109,5
Zarafshon sh.	515,4	100,3
G'ozg'on sh.	121,4	106,6
tumanlar:		
Karmana tumani	6 673,2	94,6
Konimex tumani	536,7	101,9
Qiziltepa tumani	1 013,7	103,9
Navbahor tumani	762,4	103,3
Nurota tumani	334,4	103,8
Tomdi tumani	51,5	104,5
Uchquduq tumani	314,0	104,1
Xatirchi tumani	919,5	86,5

### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-iyul oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 86 529,9 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (83,1 %)ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 12 941,1 mlrd so'm (12,5 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 4 377,3 mlrd so'm (4,2 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 235,5 mlrd so'm (0,2 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab ishlab chiqarish hajmi,  
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi  
2025-yilning yanvar-iyul oylarida



### III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatda 21,7 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2024-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 55,7 % ga oshgan), 54,0 tonna tvorog va tvorogdan mahsulotlar (8,7 % ga ko'paygan), 1 270,5 ming tonna sement (9,3 % ga kamaygan) hamda 309,5 ming m<sup>3</sup> azot (4,6 m ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyul*	2024-yil yanvar-iyul*	2025-yil yanvar-iyul
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t	15,9	13,9	21,7
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar, tonna	48,6	49,7	54,0
Yogurt, tonna	13,6	10,1	19,7
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj futbol-kalar, ming d	1 435,0	2 038,7	1 444,4
Azot, ming m <sup>3</sup>	56,4	67,6	309,5

Argon, ming m3	103,0	769,4	1 105,2
Mochevina (karbamid), ming t azot	112,1	148,0	156,8
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, ming t	4,5	6,8	8,0
Portlandsement, ming t	1 718,3	1 400,5	1 270,5
So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak, ming t	49,1	186,5	188,5

*\*2023-2024-yillarning yanvar-iyul oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

**Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 81,6 % (2024-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 5,9 % (2024-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,1 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2024-yilning yanvar-iyul oylarida 0,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 6,7 % (8,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 85,0 % (83,5 %), quyi texnologiyali 8,1 % (7,4 %)ni tashkil etgan.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025-yilning yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan issiqlik elektr stansiyalari (IEMlardan tashqari) ishlab chiqargan elektr energiyasi 73,7 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 91,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyul*	2024-yil yanvar-iyul*	2025-yil yanvar-iyul
Issiqlik elektr stansiyalari (IEMlardan tashqari) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln.kvt.s	6 195,5	6 516,3	4 805,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2 793,9	2 833,5	2 590,9

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar 5,9 m ga, oqava suvlarning shلامي 21,2 m ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 56,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyul*	2024-yil yanvar-iyul*	2025-yil yanvar-iyul
Quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	29,3	32,0	188,9
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	87,3	82,1	46,5
Oqava suvlarning shلامي, mlrd so'm	1,7	1,5	31,1

\*2023-2024-yillarning yanvar-iyul oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

#### IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9 298,1 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 8,9 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-iyul oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 8,2 % ni tashkil etgan.



## V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Sanoat bu** – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

### Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

**Sanoat ishlab chiqarishi hajmi** to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuvi ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuvi materiallari.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

### Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

**Fizik hajm indeksini hisoblash** deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

**Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi** asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

### Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfgeheh5446456>

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Sanoat va energetika  
statistikasi bo'limi

**Ijrochi:**  
A. Suyarov  
79 223-33-29 (8510)

**Manzil:**

